

Akramjon Ne'matov: "Markaziy Osiyo tobora o'zini o'tmishi, buguni va kelajagi yagona bo'lgan makonning ajralmas qismi sifatida his etmoqda"



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti (SMTI) direktorining birinchi o'rinosi Akramjon Ne'matov 2025-yilning 16-19-sentyabr kunlari Bishkek shahrida o'tkazilgan "Intimak" haftaligidagi asosiy ma'rurasida shunday fikrlarni bildirdi.

Tadbirda Qирг'изистон hukumati, nodavlat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining yuqori darajadagi vakillari ishtirok etdi. Shuningdek, ishtirokchilar orasida diplomatik missiyalar rahbarlari, turli xalqaro tuzilmalar, jumladan, YUNESKO, YUNISEF, FAO, "BMT-Ayollar," XMT, YEXHT, Martti Axtisaari nomidagi tinchlik jamg'armasi rahbarlari va ekspertlari bor edi.

Akramjon Ne'matovning so'zlariga ko'ra, bugungi kunda O'zbekiston va Qирг'изистон munosabatlari haqiqiy ishonchga asoslangan bo'lib, o'zaro manfaatli yechimlarni birqalikda izlash ikki tomonlama muloqotning imperativiga aylandi. Shu bilan birga, ekspertning ta'kidlashicha, ushbu muloqot uzlusiz, keng qamrovli va ko'p darajali xarakterga ega. Davlat va hukumat rahbarlari muntazam uchrashib turibdi, tegishli vazirlik va idoralar faol hamkorlik qilmoqda, parlamentlararo aloqlar sezilarli darajada faollashgan.

SMTI vakili ta'kidlashicha, O'zbekiston va Qирг'изистон o'rtaqidagi hamkorlik an'anaviy diplomatiya doirasidan chiqib, mintaqaviy integratsiya modeliga aylanmoqda. "Biz faqat o'zaro savdo bilan cheklanib qolmayapmiz, balki hamkorlikni ishlab chiqarish va texnologik kooperatsiya darajasiga olib chiqishga intilamiz. To'qimachilik, farmatsevtika, avtomobil ishlab chiqarish bo'yicha qo'shma zavodlar ishga

tushirildi, quyosh stansiyalari qurilmoqda," - dedi u.

Ekspertning fikricha, ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlar tarixi butun Markaziy Osiyodagi ijobiy jarayonlarning ko'zgudagi aksidir. Bugun mintaqqa misli ko'rilmagan darajadagi jipslashuvni namoyish etmoqda, O'zbekiston va Qирг'изистон qisqa muddatda strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yo'lga qo'ydi.

Shu ma'noda Akramjon Ne'matov qирг'из yozuvchisi Chingiz Aytmatovning so'zlarini keltirdi: "Tarixiy umumiylig, tillar o'xshashligi, umumiy an'analar, urf-odatlarning mavjudligi bizga birlashish va yangi dunyo, yagona sivilizatsiya hamjamiyatini qurish uchun cheksiz imkoniyatlar beradi." Ekspertning fikricha, aynan bugun bu so'zlar yanada kuchliroq yangramoqda, chunki Markaziy Osiyo Aytmatov orzu qilgan yo'lidan ketib, o'z kelajagini birdamlik va hamjihatlik tamoyillari asosida qurmoqda.

SMTI vakili ta'kidlaganidek, "mintaqqa aholisi o'zini tobora o'tmishi, buguni va kelajagi yagona bo'lган makonning ajralmas qismi sifatida his etmoqda. Aynan muloqotga sodiqlik, madaniyatlararo xilma-xillikni hurmat qilish va tinchlikni mustahkamlash asosida Markaziy Osiyoning o'ziga xosligi shakllanadi. Aslida, bu bizning madaniy-sivilizatsiyaviy kodimizning bir qismidir."

"Va aynan shu tamoyillarga tayangan holda, "Intimak" g'oyasi asosida Markaziy Osiyo o'z o'zligini yaratishi va uni to'g'ri yo'naltirishi kerak. Agar biz buni qilmasak, buni biz uchun qilishadi - lekin bizning manfaatlarimizni hisobga olmagan holda," - deya ta'kidladi Akramjon Ne'matov.

Ekspert so'zlarini davom ettirib, shu yilning oktyabr oyida O'zbekiston Farg'ona tinchlik forumini o'tkazishini ta'kidladi. Bu forum hozirgi "Intimak" haftaligi bilan birlashtiriladi va bu O'zbekiston hamda Qирг'изистон ijtimoiy totuvlikni mustahkamlashda yagona yondashuvlarga ega ekanligining ramzi bo'ladi. "Biz uchun ayniqsa muhim jihat shundaki, forum aynan asrlar davomida O'zbekiston, Qирг'изистон va Tojikiston xalqlarining taqdirlari tutashgan joyda Farg'ona vodiysida bo'ladi," - dedi u.

SMTI vakili ta'kidlaganidek, Farg'ona forumi nafaqat muhokama qilinadigan, balki mintaqqa kelajagini shakllantiradigan doimiy platformaga aylanadi. "Biz Forum butun dunyoda eslatma sifatida yangrashini istaymiz: Markaziy Osiyo mamlakatlari o'tmishda bizni ajratib turgan to'siqlarni bosqichma-bosqich olib tashlamoqda. Biz bu yo'lida to'xtab qolmaymiz - xalqlarimiz do'stligini asrab-avaylaymiz va kelajak avlodlarga yetkazamiz," - dedi ekspert.

Akramjon Ne'matov o'z nutqini yakunlar ekan, tinchlikni mustahkamlash kundalik mehnat ekani, bunda muloqot tanlov emas, balki hayotiy zaruratligini ta'kidladi. "Bu borada "Intimak" qadriyatlarining asosiy tashuvchisiga aylanishi kerak bo'lган yoshlarning o'rni alohida ahamiyatga ega. Ushbu tadbir Markaziy Osiyo faqat tinchlik, bag'rikenglik va bunyodkorlik bilan uyg'unlashgan kelajak sari qo'yilgan yana bir qadam bo'lishini istayman," - deya yakunladi u.